

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Qurbonova Marg'uba</i> O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI	13-15
<i>Polvanov Azim Kuchkarovich</i> AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI	16-21
<i>Esnazarova Zulfiya Baltashovna</i> QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924).....	22-27
<i>Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar).....	28-36
<i>Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid</i> IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARINING ISHTIROKI	37-43
<i>Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li</i> XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI	44-47
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE).....	48-52
<i>Esanova Nilufar</i> 1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOIY MAMLAKATLARI MISOLIDA).....	53-56
<i>Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li</i> O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	57-64
<i>Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li</i> HUDUDIIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA	65-70
<i>Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li</i> XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI	71-74
<i>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIY AHAMIYATI	75-80
<i>O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li</i> ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI	81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:

EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH 89-98

Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherhali qizi

MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:

QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? 99-104

Xakkulov Akbar Uralovich

MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI 105-111

Amonov Mehridin Oromiddinovich

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:

AVTOKRATIK RAHBARLAR 112-117

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI

BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI 118-125

Yangiboyev Rustam Berdiyarovich

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 126-131

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich

DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN

FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK

XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI 132-143

Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu

DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING

NAZARIY ASOSLARI 144-150

Umronov Eldorbek Sodirovich

HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING

EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI 151-159

Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY

IN UZBEKISTAN 160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Ahmedova Dilrabo

YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY

JARAYONLARNING TA'SIRI 173-177

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna

NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING

FALSAFIY TAHLILI 178-184

Kurbonaliyev Ural Xatamovich

ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH

DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI 185-189

Soipova Mavjuda Karimjanovna

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI 190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOYIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i> IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOYIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i> КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOYIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i> TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i> YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i> SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i> YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i> СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280
---	---------

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i> PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i> ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i> ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i> MARGARET DRABBLNING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i> СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i> ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoy</i> "DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI TAHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i> SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejavalievna</i> TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i> XITOIY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i> SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i> DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i> BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i> TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyoro

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING

PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO

MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):

MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI

TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH

BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ

СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ

В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera

TALABALARDA TAHLILY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK

ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS

FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i> TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Abdullaeva Dilдора Улугбековна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i> STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i> SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i> TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali</i> SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i> KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI(PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i> KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i> BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

STAGES OF DEVELOPMENT OF TRAINING PLANS AND THEIR PRACTICAL IMPLEMENTATION THROUGH THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Otabaev Iskandar Abduganievich

Doctoral student

Of the Institute for the Development of Professional Education

E-mail: iskandar0881@gmail.com

Abstract. This article analyzes the processes of developing curricula and their practical implementation based on the credit-modular system in vocational education institutions. It scientifically substantiates the need for designing curricula based on competencies, structuring them into modules, assessing them through credit units, and integrating modern innovative technologies. The study results highlight the opportunities to improve the quality of vocational education by enhancing teaching through the credit-modular system.

Keywords: credit-modular system, curriculum, vocational education, competencies, module, assessment system, innovative technologies.

KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQUISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI

Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich

Professional ta'limni rivojlantirish instituti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbiy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimiga asoslangan holda o'quv rejalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish jarayonlari tahlil qilingan. O'quv rejalarini kompetensiyalarga asoslangan holda shakllantirish, modullarga bo'lish, kredit birligi asosida baholash hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash zarurati ilmiy asosda asoslab berilgan. Tadqiqot natijalarida kredit-modul tizimi orqali o'qitishni takomillashtirish va kasbiy ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, o'quv rejasi, kasbiy ta'lim, kompetensiya, modul, baholash tizimi, innovatsion texnologiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N91>

Bugungi kunda jahon miqyosida ta'lim tizimini tubdan yangilash, uni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonini takomillashtirish, uni raqobatbardosh, samarali va mehnat bozori talablariga javob beradigan qilib tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, kasbiy ta'lim muassasalarida mutaxassis tayyorlash sifati va natijadorligini oshirish uchun ta'lim mazmuni va shaklini qayta ko'rib chiqish, innovatsion tizimlarni joriy etish zarurati tug'ildi. Shu nuqtai nazardan, kredit-modul tizimini joriy etish va uning asosida o'quv rejalarini qayta ishlab chiqish dolzarb va strategik ahamiyat kasb etadi.

Kredit-modul tizimi, avvalo, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil ta'limga asoslangan o'quv trayektoriyalarini shakllantirish, ta'lim natijalarini

kompetensiyalarga asoslangan holda baholash imkonini beradi. Bu tizimda har bir o'quv fanini alohida modul sifatida tashkil etish, har bir modul uchun aniq miqdorda kredit birliklari belgilash va modullar orqali o'quvchilarning o'quv yutuqlarini bosqichma-bosqich baholash nazarda tutiladi. Natijada, ta'lim jarayoni mazmunan ham, tashkiliy jihatdan ham yaxlit va tizimli ravishda tashkil etiladi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kredit-modul tizimi Yevropa mamlakatlarida (ayniqsa, Bolonya jarayoni ishtirokchilari orasida) va AQSH, Kanada, Avstraliya kabi davlatlarda keng qo'llaniladi. Ushbu tizim bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida ham kasbiy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda [4, 14].

O'zbekistonda ta'lim tizimini kredit-modul asosida qayta qurish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2023-yil 7-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 648-sonli qarori ("Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida") bu sohadagi islohotlarni huquqiy jihatdan mustahkamladi. Mazkur qarorga asosan, kasbiy ta'lim muassasalarida o'quv rejaları va dasturlari kredit-modul talablariga muvofiq ravishda qayta ishlab chiqilishi va amaliy joriy etilishi shart qilib belgilandi [1].

Kredit-modul tizimini samarali joriy etishda eng muhim masalalardan biri — bu o'quv rejalarini zamonaviy talablarga javob beradigan shaklda qayta ishlab chiqishdir. Odatda an'anaviy o'quv rejaları fanlar ro'yxati va haftalik dars soatlariga asoslangan holda tashkil etilgan bo'ladi. Bunday yondashuv esa ko'p hollarda o'quvchilarning bilim, malaka va kompetensiyalarini to'liq shakllantirishga yo'naltirilmagan bo'ladi. Shuning uchun ham kredit-modul tizimi sharoitida o'quv rejalarini qayta shakllantirish talab etiladi, bunda har bir o'quv moduli orqali muayyan kompetensiyalarni rivojlantirish maqsad qilib belgilanadi [7].

O'quv rejalarini kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqish jarayonida quyidagi muhim prinsiplarga amal qilish talab qilinadi:

- **Kompetensiyalarga yo'naltirilganlik:** har bir modul ma'lum bir kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi shart;
- **Modullashtirish:** ta'lim mazmuni alohida modullarga bo'linishi, modullar tugal va mantiqiy bog'liq bo'lishi lozim;
- **Kredit birliklari asosida baholash:** modullarning og'irligi kredit birliklari orqali o'lchanishi va o'quvchilarning ish hajmini hisobga olishi zarur;
- **Mustaqil ta'limga e'tibor:** o'quv rejaları o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati ulushini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
- **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish:** ta'lim jarayonida elektron ta'lim platformalari, onlayn resurslar, multimedia materiallarini faol qo'llash.

Shu bilan birga, kredit-modul tizimida o'quv rejalarini ishlab chiqishda mehnat bozori talablari, kasbiy standartlar va ish beruvchi tashkilotlar fikrlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalari bitiruvchilari zamonaviy mehnat bozorida to'liq raqobatbardosh bo'lishi uchun ularning tayyorgarlik darajasi, kasbiy ko'nikmalari va malakasi real talablarga mos bo'lishi shart.

O'quv rejalarini ishlab chiqish faqatgina nazariy asosda emas, balki amaliy tatbiq etish bosqichlarida ham puxta yondashuvni talab qiladi. Ta'lim muassasalari o'quv rejalarini ishlab

chiqqanidan so'ng, uni amaliy jarayonda joriy qilish uchun qator tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Bular qatorida pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, modulli o'qitish metodikasini puxta o'zlashtirish, ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi masalalar alohida ahamiyatga ega [15].

Hozirgi kunda xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, kredit-modul tizimini samarali tatbiq etish natijasida:

- O'quvchilarda mustaqil o'qish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi;
- O'quv jarayoni moddiy va mantiqiy jihatdan yaxlitlashadi;
- Oliy va kasbiy ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim kreditlarining o'zaro tan olinishi ta'minlanadi;
- Bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi oshadi.

Hozirgi globallashuv va raqobat sharoitida ta'lim tizimini sifat jihatdan yangilash, uni bozor talablariga moslashtirish va xalqaro andozalarga yaqinlashtirish davr talabiga aylandi. Bunda kredit-modul tizimi asosida o'quv rejalari ishlab chiqish eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki o'quv rejalari ta'limning mazmuniy va tashkiliy asosini tashkil qilib, o'quv faoliyatini natijaga yo'naltirishning dastlabki qadamidir.

1. Ta'lim yo'nalishi maqsad va vazifalarini belgilash

O'quv rejasini ishlab chiqish jarayonida birinchi navbatda ta'lim yo'nalishi maqsadi va vazifalarini aniqlash talab etiladi. Bu bosqich ta'lim jarayonining asosiy yo'nalishi va mazmuniy yo'sini belgilaydi.

Ta'lim yo'nalishining maqsadi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga, mehnat bozori talablariga va milliy kadrlar tayyorlash konsepsiyasiga muvofiq belgilab olinadi. Masalan, texnika sohasida ta'lim beruvchi muassasa bitiruvchisi sanoat va texnologiya sohaslarida amaliy faoliyat yurita oladigan, innovatsion yondashuvga ega mutaxassis bo'lishi kerak.

Maqsad va vazifalarni aniq belgilash o'quvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan kompetensiyalarni tizimli ravishda belgilash imkonini beradi.

Bu bosqichda amalga oshiriladigan ishlar:

- Tarmoq va sohaviy tahlil asosida ta'lim yo'nalishi profilini aniqlash;
- Ham umumiy, ham kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun maqsadli yo'nalishlar belgilash;
- Ta'lim natijalarini mehnat bozorining talablari bilan muvofiqlashtirish.

2. Kompetensiyalarga asoslangan o'quv natijalarini shakllantirish

Kredit-modul tizimi asosida o'quv rejalari ishlab chiqishda kompetensiyalarga asoslangan yondashuv asosiy o'rin tutadi. Bu bosqichda bitiruvchida qanday bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanishi kerakligi aniq belgilanadi.

Har bir o'quv natijasi "o'quvchi nima bilishi, tushunishi va qila olishi kerak?" degan savolga javob berishga xizmat qiladi.

Kompetensiyalar:

- umumiy kompetensiyalar (muomala qilish, axborotni tahlil qilish, jamoada ishlash qobiliyati va boshqalar),
- kasbiy kompetensiyalar (profil sohasiga xos bilim va amaliy ko'nikmalar) qismida shakllantiriladi.

To'g'ri shakllangan kompetensiyalarga asoslangan o'quv natijalari ta'lim jarayonini natijador va mehnat bozori talablariga mos qilib tashkil etish imkoniyatini beradi.

3. Ta'lim mazmunini modullarga bo'lish

Maqsad va kompetensiyalarni aniqlaganidan keyin o'quv rejasidagi ta'lim mazmuni modullarga bo'linadi.

Modul — bu ma'lum bir mantiqiy tugallangan, mustaqil o'rganilishi mumkin bo'lgan o'quv materiallar to'plamidir. Har bir modul muayyan kompetensiyani shakllantirishga xizmat qilishi kerak [20].

Ta'lim mazmuni modullarga bo'linar ekan, quyidagi tamoyillarga rioya etiladi:

- Modul o'quv natijalarini to'liq qamrab olishi;
- Modul mantiqiy yaxlit va tugal bo'lishi;
- Modul orqali bilim, ko'nikma va malakalar uyg'un ravishda shakllanishi.

Modullar miqdori ta'limning davomiyligi, kasbiy yo'nalishi va belgilangan kredit birliklari umumiy soniga qarab aniqlanadi.

4. Modullarga kredit birliklarini taqsimlash

Kredit-modul tizimida har bir modul uchun mos kredit birliklari belgilanadi.

Kredit — o'quvchining muayyan o'quv yukini ifodalovchi o'lchov birligidir. Yevropa tajribasiga ko'ra, bir akademik yilda o'quvchining o'rtacha yuki 60 ECTS kreditga tengdir.

Modullarga kredit ajratish quyidagi asoslarda amalga oshiriladi:

- O'quv mashg'ulotlar soati (ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari);
- Mustaqil ta'lim va topshiriqlarni bajarish uchun sarflanadigan vaqt;
- Moduldan kutilgan o'quv natijalarining murakkablik darajasi.

Kredit ajratish jarayonida fanning haftalik yuki emas, balki umumiy ish hajmi asos qilib olinadi.

5. Baholash va monitoring tizimini ishlab chiqish

Kredit-modul tizimida baholash ta'lim natijalariga asoslanadi. Bu degani, o'quvchining modul yakunlarida kompetensiyalarni qay darajada o'zlashtirgani baholanadi.

Baholash tizimi:

- Oraliq nazorat (testlar, topshiriqlar, prezentatsiyalar),
- Yakuniy nazorat (imtihonlar, loyiha ishlari),
- Amaliy ish natijalari asosida tashkil etiladi.

Har bir modul uchun baholash mezonlari aniq belgilanadi va ular o'quvchilarga darslik boshida ma'lum qilinadi.

Monitoring tizimi orqali o'quv jarayonining samaradorligi tahlil qilinadi va zarur hollarda korrektivalar kiritiladi.

6. O'quv rejasini normativ-huquqiy asoslar bilan muvofiqlashtirish

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv rejasini amaldagi davlat ta'lim standartlari, malakalar ramkasi va kasbiy standartlarga mos kelishi shart.

Shu bois:

- Me'yoriy hujjatlar tahlil qilinadi,
- Malakalarning minimal va maksimal darajalari tekshiriladi,
- Ta'lim bosqichlari va fanlar o'rtasidagi uzviylik ta'minlanadi.

Bu jarayon o'quv rejasining davlat akkreditatsiyasi talablariga mos kelishi uchun juda muhimdir.

7. Ommaviy muhokama va aprobeatsiya bosqichi

Tuzilgan o'quv rejasi pedagogik jamoa, soha mutaxassisleri, ish beruvchi tashkilotlar va o'quvchilar bilan muhokama qilinadi.

Aprobeatsiya jarayonida:

- Pilot loyihalar doirasida amaliy sinovlar o'tkaziladi;
- O'quvchilar va o'qituvchilar fikri o'rganiladi;
- Aniqlangan kamchiliklar va takliflar asosida o'quv rejasi takomillashtiriladi.

8. O'quv rejasini rasmiy tasdiqlash va amaliyotga joriy etish

Ta'lim muassasasining Ilmiy Kengashida muhokama qilinganidan so'ng, o'quv rejasi rasman tasdiqlanadi va o'quv jarayonida amaliyotga joriy etiladi.

Joriy etish jarayonida:

- Oqilona o'quv grafigi tuziladi,
- Modulli o'qitish uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlanadi,
- Elektron resurslar bazasi yaratiladi,
- Pedagoglarning malakasi oshiriladi.

Kredit-modul tizimi asosida o'quv rejalarini ishlab chiqish tizimli va ilmiy yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Bunda har bir bosqichning izchil va puxta bajarilishi ta'lim mazmunining sifatini, o'quvchilarda shakllanadigan kasbiy kompetensiyalarning darajasini va ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini belgilaydi [13].

Quyida kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqilgan o'quv rejalarini amaliyotga joriy etishning asosiy bosqichlari keng va atroflicha yoritiladi.

1. Pedagogik jamoani tayyorlash va qayta o'qitish

O'quv rejasini amaliy tatbiq etishdagi birinchi va eng muhim bosqich – bu pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishdir. Kredit-modul tizimi an'anaviy o'qitishdan sezilarli farq qiladi [12]. Unda o'qituvchidan:

- Modulli o'quv materialini tuzish va undan foydalanish,
- Ta'lim natijalarini kompetensiya asosida baholash,
- O'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish,
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish qobiliyatlari talab qilinadi.

Shu sababli, ta'lim muassasalarida:

- Maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etiladi;
- O'qituvchilar uchun modulli o'quv dasturlari tayyorlanadi;
- Modul asosida dars tashkil qilish va baholash texnologiyalari o'rgatiladi.

Pedagoglarni qayta tayyorlash jarayoni doimiy va tizimli bo'lishi kerak. Chunki kredit-modul tizimi ta'lim metodikasida doimiy yangilanishlarni talab qiladi.

2. Modul asosida o'quv kurslarini ishlab chiqish

Kredit-modul tizimi talablariga muvofiq, har bir fan yoki o'quv yo'nalishi uchun alohida modul kurslari ishlab chiqiladi. Modul kurslari aniq maqsadga, kutilgan natijalarga, nazariy va amaliy mashg'ulotlarga ega bo'lishi shart [15].

Modul kursini tayyorlash jarayonida quyidagilarga e'tibor beriladi:

- Modul maqsadlari va o'quv natijalarini aniq belgilanadi;
- Modul kontenti qisqa va mazmunan mantiqiy bog'liq bo'lishi;
- Mustaqil ta'lim uchun materiallar va topshiriqlar tayyorlanadi;

- Baholash mezonlari va shakllari (test, amaliy ish, tajriba) ishlab chiqiladi.

Har bir modul kursining mazmuni o'quvchilarning bilim olishi bilan bir qatorda, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham qaratilgan bo'lishi shart.

3. Ta'lim jarayonini qayta tashkil etish

Kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayonini an'anaviy "ma'ruza — seminar — imtihon" shaklidan chiqarish talab qilinadi [17].

Jarayonda:

- Ta'limning modulli tashkil etilishi,
- Mustaqil o'quv ishlarining ulushi oshirilishi,
- Amaliy mashg'ulotlar va loyiha ishlarining ulushi kuchaytirilishi shart.

Masalan, bir modul darslari:

- 40% nazariy bilim,
- 30% amaliy mashg'ulotlar,
- 30% mustaqil ish va tadqiqot ishlaridan iborat qilib tuziladi.

Bunday yondashuv o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, ijodiy va tahliliy fikrlashini rivojlantiradi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish

Kredit-modul tizimi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanadi [21].

Foydalaniladigan asosiy vositalar:

- Elektron ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom va boshqalar);
- Multimedia vositalari;
- Virtual laboratoriyalar;
- Onlayn test va baholash tizimlari.

O'quvchilar har bir modul doirasida elektron manbalardan foydalanib, mustaqil ravishda bilimlarini chuqurlashtiradi va o'zlashtiradi.

5. Mustaqil ta'limni rag'batlantirish

Kredit-modul tizimi o'quvchilarda mustaqil o'qish qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qiladi [12].

Shuning uchun:

- Mustaqil topshiriqlar (keysalar, tahlil ishlari, esse yozish) tayyorlanadi;
- Ularni baholash uchun aniq mezonlar ishlab chiqiladi;
- Mustaqil ishlarni muddatli va bosqichli tekshirish tizimi tashkil etiladi.

Bunday usul o'quvchining bilim olishdagi shaxsiy mas'uliyatini kuchaytiradi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

6. Modullar bo'yicha baholash va monitoring qilish

Ta'lim jarayonida har bir modul yakunlanganidan so'ng o'quvchilar bilim va ko'nikmalari baholanadi [18].

Baholash usullari:

- Oraliq testlar;
- Amaliy topshiriqlar natijalari;
- Loyiha ishlari va mustaqil tadqiqotlar;
- Muloqotlar va taqdimotlar.

Monitoring jarayoni orqali:

- Modul samaradorligi tahlil qilinadi;
- O'quvchilarning kompetensiyalarga erishish darajasi o'rganiladi;
- Qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

7. Modul natijalarini tahlil qilish va tizimni takomillashtirish

O'quvchilarning modul yakunlari bo'yicha erishgan natijalari asosida ta'lim jarayoniga zarur o'zgartirishlar kiritiladi.

Aniqlanadi:

- Qaysi modullar samarali ishlamoqda;
- Qaysi modullarda kamchiliklar bor;
- Qaysi yo'nalishda qo'shimcha resurslar va usullar talab etilmoqda.

Bunday tahlil va yangilash tizimli ravishda olib borilsa, ta'lim jarayonining sifat darajasi muntazam oshib boradi.

8. Ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish

Kredit-modul tizimining maqsadi faqat mahalliy emas, balki xalqaro mehnat bozori talablariga ham mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shuning uchun o'quv rejalari va modullarni [3]:

- Yevropaning ECTS talablariga,
 - Bolonya jarayoni prinsiplariga,
 - Malakalar ramkalariga
- muvofiqlashtirish talab etiladi.

Bu jarayon o'quvchilarning o'quv kreditlarini xalqaro miqyosda tan olinishi va ularning akademik mobilligini ta'minlaydi.

Kredit-modul tizimini kasbiy ta'lim muassasalarida joriy etish, o'quv rejalari ushbu tizim asosida ishlab chiqish va amaliy tatbiq etish ta'lim tizimini sifat jihatdan takomillashtirishga qaratilgan dolzarb va strategik ahamiyatga ega jarayondir. Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimi orqali ta'lim jarayonini tashkil etish nafaqat ta'lim mazmuni va shaklini zamonaviylashtiradi, balki o'quvchilarning mustaqil o'qishga bo'lgan qiziqishini, faolligini va mas'uliyatini ham yuqori darajada shakllantiradi.

Ushbu maqolada ta'lim mazmunini kompetensiyalarga yo'naltirilgan, modullashtirilgan va natijaga qaratilgan holda tashkil qilish zarurati ilmiy asoslangan holda asoslab berildi. Aniqlandiki, kredit-modul tizimi asosida o'quv rejalari ishlab chiqish jarayoni izchil bosqichlarga ega bo'lib, har bir bosqich ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, ta'lim yo'nalishi maqsad va vazifalarini aniqlash bosqichida mehnat bozorining real ehtiyojlarini inobatga olish, milliy va xalqaro standartlarga muvofiq maqsad qo'yish ta'lim jarayonining eng asosiy yo'nalishini belgilaydi. Har bir ta'lim yo'nalishi uchun shakllantirilgan maqsad bitiruvchining professional profilini, uning faoliyat sohasini va kasbiy maqsadlarini belgilaydi.

Ikkinchidan, kompetensiyalarga asoslangan o'quv natijalarini shakllantirish bosqichi, ta'lim jarayonida o'qitiladigan bilimlar emas, balki o'quvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan amaliy ko'nikmalar va qobiliyatlar ustuvor ekanligini ko'rsatdi. Kompetensiyalarga asoslangan ta'limning joriy etilishi natijasida bitiruvchilar fanni bilish bilan cheklanib qolmaydi, balki real ish jarayonida zarur bo'ladigan amaliy malaka va ko'nikmalarga ham ega bo'ladilar.

Uchinchidan, ta'lim mazmunini modullarga bo'lish va ularga kredit birliklarini ajratish bosqichi ta'lim jarayonining mantiqiy tizimlashuviga xizmat qiladi. Modullar orqali ta'lim

mazmuni qismlarga bo'linadi va har bir qism tugal bir bilim va ko'nikmalar majmuasini shakllantiradi. Bu o'quvchilarning ma'lumotlarni tezlik bilan o'zlashtirishini va o'quv jarayonida bosqichma-bosqich ilgarilab borishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, baholash va monitoring tizimini ishlab chiqish ta'lim jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Kredit-modul tizimida har bir modulning yakunlanishi o'quvchilarning modulda belgilangan kompetensiyalarga qanchalik erishganini baholash orqali belgilanadi. Baholash tizimida o'quvchilarning nazariy bilimlari bilan birga amaliy ko'nikmalari va mustaqil ish faoliyati ham baholanadi.

Beshinchidan, ishlab chiqilgan o'quv rejalarini amaliy tatbiq etish jarayoni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning malakasi, modul asosida darslarni tashkil qilish qobiliyati va o'quvchilarni mustaqil o'qishga unday olish mahorati hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada jozibali va samarali qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqilgan va amaliy tatbiq etilgan o'quv rejalarini:

- Ta'lim jarayonida mustaqil o'quv faoliyati ulushini oshiradi;
- Ta'lim natijalarini kompetensiyalarga asoslangan ravishda baholash imkonini beradi;
- Ta'lim mazmunini qisqachalik va mantiqiy izchillik asosida tashkil qiladi;
- Bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydi;
- Ta'lim jarayonida individual yondashuv va shaxsiy trayektoriyalarni rivojlantiradi;
- Ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiya qiladi.

Shuningdek, kredit-modul tizimini samarali joriy etish uchun muayyan shart-sharoitlar talab etiladi. Bular qatorida:

- Pedagog kadrlarning modulli o'qitish texnologiyalarini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi;
- Oqilona ishlab chiqilgan modul kurslari va metodik qo'llanmalarning mavjudligi;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron ta'lim platformalaridan samarali foydalanish;
- Ta'lim jarayonining doimiy monitoringi va baholash tizimini joriy etish;
- Mehnat bozorining o'zgaruvchan talablarini muntazam o'rganib borish va ularni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish.

Ta'kidlash joizki, kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bitiruvchining shaxsiy rivojlanishini, ijodiy fikrlashini, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini va kasbiy faoliyatdagi tashabbuskorligini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Shu o'rinda ta'lim muassasalari uchun muhim tavsiyalar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- O'quv rejalarini ishlab chiqishda mehnat bozori bilan doimiy aloqa o'rnatish va zamonaviy kasbiy standartlarga mos kompetensiyalar ro'yxatini doimiy yangilab borish;
- Modul dasturlarini yaratishda pedagoglarning faol ishtirokini ta'minlash va ularning metodik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- Modullarni joriy etish jarayonida o'quvchilarning fikrlarini, tajribalarini va baholash natijalarini hisobga olish orqali tizimni doimiy takomillashtirish;

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini modulli ta'lim jarayoniga izchil integratsiya qilish;
- Har bir o'quv yili yakunida ta'lim jarayoni samaradorligini monitoring qilish va tahlil etish orqali zarur tuzatishlar kiritib borish.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, kredit-modul tizimi asosida o'quv rejalarini ishlab chiqish va amaliy tatbiq etish orqali O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimida sifat o'zgarishlariga erishish mumkin. Bu jarayon ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglarda yuqori o'rin egallashi, bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi va milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.12.2023 y. 648-son "Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. Azizov U. Kredit-modul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. - http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php?ECTION_ID=161&ELEMENT
3. Assefa M., Sedgwick, R. Evaluating the Bologna degree in the US. Worldeducation news and reviews, March/April 2004.
4. Bologna Declaration. Joint Declaration of the European Ministers of Education Convened in Bologna on the 19th of June 1999.
5. Credit Transfer and Accumulation - the Challenge for Institutions and Students, EUA/Swiss Confederation Conference, ETH Zurich, 11-12 October, 2002.
6. Kennedy, D. (2007). Writing and Using Learning Outcomes: A Practical Guide.
7. Kubayeva Y.I. Kredit-modul tizimini tashkil etish – ta'limda dolzarb masala sifatida // "Ma'naviy barkamol yoshlar yangi O'zbekiston bunyodkori" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: 2024. – B. 121-124.
8. Maxmanov U.A. Oliy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etilishi va imkoniyatlari // Zamonaviy ta'lim. –Toshkent: 2021. –№1. – B. 4-11.
9. Mirzayev Q.J. Ta'lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida rivojlantirish imkoniyatlari // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent: 2022. – №7. – B. 16-20.
10. Smith, J. (2018). Modular Education: Theory and Practicye.
11. UNESCO. (2019). Digital Transformation in Education.
12. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish // O'quv qo'llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 b.
13. Xabibullayev B., Topildiyev V., Innazarov M. Kredit-modul tizimi va o'quv jarayoni tashkil etish // O'quv-uslubiy majmua – Toshkent, 2020. – 149 b.
14. Zaripov L., Xayitov N., Tuxtayeva M. Kredit-modul tizimi bo'yicha xorij tajribasi // Metodik qo'llanma. – Toshkent: "Yetakchi nashriyoti", 2024. – 32 b.
15. Андриенко А.С. Развитие иноязычной профессиональной компетентности студентов технического вуза (на основе кредитно-модульной технологии обучения): Дис. ... канд. пед. наук 13.00.08. -Ростов н/Д., 2007. - 282 с.
16. Баум В. В. Система зачетных единиц (кредитов) как один из инструментов признания квалификаций, - М., РУДН, 2007. С. 12.
17. Маслов И.В. Методика информационной подготовки юристов с применением кредитно-модульной системы: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. –Ростова-на-Дону: 2011. – 22 с.
18. Методические рекомендации по внедрению в вузе системы зачетных единиц (кредитов) / [Текст] /. Государственный университет управления, Центр качества [сост. О.В. Давыдова, В.И. Звонников, М.Б. Челышкова]. – М.: ГУУ, 2010. – 50 с

19. Рахимов А.А. Методика организации индивидуальных работ студентов по математике в условиях кредитного обучения в техническом вузе: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. –Душанбе: 2020. –26 с.
20. Рослякова Е.М., Бисерова А.Г., Хасенова К.Х., Байболатова Л.М. Модульная система обучения-опыт и перспективы. – Posted September 25th, 2014 by kaznmu & filed under Английский, Инновационные методы обучения. <https://kaznmu.kz/press/2014/09/25/%D0%BC%D0%BE%D0>
21. Тищенко Е.А. Организация системы кредитного обучения в техническом ВУЗе: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. –Ростова-на-Дону: 2007. – 23 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).